

**IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA O'ZBEKISTON  
AYOLLARINING FRONT VA FRONTORTIDAGI FAOLIYATI**

*Turdaliyeva Odinaxon Baxtiyor qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

*E-mail: [turdaliyevaodinaxon2810@gmail.com](mailto:turdaliyevaodinaxon2810@gmail.com)*

*Tel: +998943972805*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ikkinci jahon urushi yillarida o'zbekistonlik xotin-qizlarning front va frontortida jang va mehnat sohasida ko'rsatgan jasoratlari, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ikkinci jahon urushi, Raxima Alimova, Zebo G'aniyeva, Maryam Yusupova, Sobira Majidova, SSSRning eng yaxshi traktorchisi.

**Abstract:** This article discusses the courage of Uzbek women in battle and labor at the front and in the frontline during World War II, and their contribution to the victory over fascism.

**Keywords:** World War II, Rakhima Alimova, Zebo Ganiyeva, Maryam Yusupova, Sobira Majidova, the best tractor driver of the USSR.

**Kirish.** Ikkinci jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan ko'p millatli O'zbekiston xalqining qo'shgan hissasi beqiyosdir. Bugungi tinch va ozod, faravon ota-bobolarimiz namayon etgan mardlik va jasoratni el-yurtimiz hech qachon unutilmaydi.

Darhaqiqat Vatanimiz tarixini holis va haqqoniy o'rganar ekanmiz. Ikkinci jahon urushi, u keltirib chiqargan misilsiz yo'qotishlar, urushda erishilgan buyuk g'alabagacha bo'lgan davriga o'zbek xalqining nafaqat erkaklarning, balki, ayollarning ham ulkan hissasi borligini e'tirof etamiz. Mazkur davrida, o'zbek ayollarini ko'rsatgan jasorati, bukilmas irodasi va matonati insonparvarlik fazilatlari oilaparvarligi biz avlodlar uchun muqaddas xotira va odamiylikning yuksak belgisi bo'lib qoladi.

Ilmiy-texnikaviy inqiloblar bosqichi o'laroq ulug'lanadigan XX asr ikkita jahon urushini boshdan kechirganligi asrlar kesimida aynan shu 100 yillikda eng ko'p urush sodir bo'lGANI hayrat uyg'otishi tabiiy. Dunyo aholisining 80% ga ega bo'lgan 62 ta davlatni qamrab olgan va 110 000 000 harbiylar qatnashgan ushbu qirg'in-barot 60-65 million kishi hayotiga zomin bo'ldi. Harbiy harajatlar va yo'qotishlar 4 trillion dollarga tenglashgani inobatga olinsa, urushning o'ta o'gir yuki yuz millionlab oddiy kishilar bo'yinda tushganini ilg'ash qiyinmas, deb o'ylaymiz. Qanchadan-qancha xalqlar ko'rgan ijtimoiy-iqtisodiy talofatning esa cheki yo'q.

Mazkur urush vatanimiz hududidan ancha olisda sodir bo‘lgan bo‘lsada , uning ayozli nafasi bizgacha kelmay qolmagan. Ota-bobolarimiz fashizm ustidan qozonilgan umumiy g‘alabaga ulkan va tengsiz hissa qo‘sghanlari haqiqatini tarix sahifalaridan hech qachon o‘chirib bo‘lmaydi. Shu bilan birga , ushbu marraga etishish el-yurtimiz uchun o‘ta qimmatga tushganini ham esdan chiqarmaslik darkor.

Tan olish kerakki erkaklarning bu urush uchun qo‘sghan hissasi beqiyosdir. Ammo frontortida qolgan xotin-qizlarimiz mehnat frontida dushman bilan olishdilar. Urush yillarida ayollar qishloq xo‘jaligi, sanoat, xalq qurilishlari qo‘yingki xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida mehnat qilganlar. Statistik ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak: 1942-yilning oxiriga borib, sanoat ishchilarining 63,5 foizi, qishloq xo‘jaligi vakillarining 65 foizini xotin-qizlar tashkil etgan edi. 1940-yilda Respublika bo‘yicha sanoat sohasida band ayollar jami ishchilarning 43 foizini tashkil etgan edi.[1]

1942-yilda SSSR Yer ishlari Xalq Komissarligi tashabbusi bilan o‘tkazilgan Butunittifoq musobaqasida Namangan oblastidan Tojixon O‘sarova, Buslanova, K. Dadaboyeva va Oyimxon Dadaboyevalar “SSSRning eng yaxshi traktorchisi” mukofotiga ega bo‘lgan [2].

Ikkinchi jahon urushi yillarida yurtimiz xotin-qizlari nafaqat frontortida, balki frontda ham erkaklar bilan bir safda turib dushmanغا qarshi jang qilganlar.

Urush yillarida, ayniqsa Moskva mudofasida o‘zbekistonlik Zebo G‘aniyeva (1923-2010) ning nomi mashhur bo‘ldi. A.V. Lunacharskiy nomidagi Moskva davlat teatr san’ati institutining talabasi Zebo G‘aniyeva urush boshlangach ko‘plab talabalar singari ko‘ngilli ravishda urushga kirdi. Otish kurslarida tayyorgarlik ko‘rgan jasur qiz 1941-yil 7-noyabr 3-Moskva kommunistik diviziysi tarkibida Qizil maydondagи paradda qatnashgan va urushga otlangan. U 1942-yil aprel-may oylarigacha 21 ta dushman harbiy xizmatchilarini yo‘q qilgan, razvedkachilari safida o‘z hayotini xavf ostida qoldirib 12 marta dushmanning rejalarini bilib olish maqsadida tirik asir tutib kelish operatsiyasida ishtirok etib shuhrat qozongan, Stalinning 1942-yil 28-iyuldagи IV-227-sonli “Bir qadam ham orqaga chekinilmasin” nomli qaroriga binoan 28 ta fashistni yer tishlatgan. Urush yillarida mengan, radio operatori, razvedkachi sifatida ishtirok etgan Zebo G‘aniyeva ko‘rsatgan jasoratlari uchun “Qizil Bayroq”, “Qizil Yulduz” ordenlari, “Moskva mudofasi uchun” medali va 1-darajali vatan urushi ordeni bilan taqdirlangan.[3]

Ikkinchi jahon urushi yillarida kichik tibbiyat xodimlari tayyorlashda Qizil Yarim oy jamiyatni tashkilotlari katta o‘rin tutdi. Jumladan, O‘zbekiston SSRda tashkilot tomonidan urush yillarida 7000 hamshira, 16700 sanitariya drujinachilari,

10 mingdan ortiq tibbiyat instruktori va sanitarkalar tayyorlandi. Evakuatsiya shifoxonalarida jamiyatning 230 hamshirasi, 2000 drujinachi ayollar ishlagan. Jamiyatning 17000 dan ortiq o‘qitilgan faollari ixtiyoriy ravishda yaradorlar bilan O‘zbekiston gospitallarida va saralash stansiyalarida ishlashgan. Urushning boshida

2500 hamshira va drujinachi ayollar o‘z ixtiyori bilan frontga jo‘nab ketdi va front va armiya bo‘linmalarida fidokorona jang qildi, ularning ko‘plari hukumat mukofotlari bilan taqdirlandi [4].

Urush yillarida huddi shunday xotin-qizlardan Raxima Alimova, meditsina xizmatining kapitani Sobira Majidova, meditsina xizmatining katta leytenant Maryam Yusupova kabilar yarador jangchi va ofitserlarni urush olovidan olib chiqadilar.

Jumladan, buxorolik Rahimova Alimova qahramon ayollardan biri bo‘lgan. 1943-yilning 18-iyuldan 28-iyulgacha Shimoliy Dones daryosi qirg‘oqlarida Donbass uchun o‘n kunlab jang bo‘ldi. Ana shu vaqtda Rahima Alimova pulemyot ham minomyot o‘ti ostida 97 ta yarador jangchi va ofitserlar Alimovaga hali ham o‘z minnatdorchiligini bildiradi. 1-sentabrdan 20-sentabrgacha davom etgan 20 kunlik janglari vaqtida Rahima Alimova ana shunday mardona harakat qildi. Bu safar 30 nafar jangchi va ofitserni quroq-yaroqlari bilan jang maydonidan olib chiqib ketdi va ularga zarur bo‘lgan meditsina yordamini ko‘rsatdi. Shunday paytlar ham bo‘ladiki Rahimaxonim ham sanitар, ham sanitariya instruktori, ham feldsher vazifalarini bajargan. O‘rtoq Rahima Alimova jang maydonida faqat medisina xodimi sifatidagina emas balki oddiy jangchi sifatida ham nom chiqaradi.[5]

Jasoratlari o‘zbek qizlaridan biri Maryam Yusupova 1940-yilda Toshkentdagi tibbiyot texnikumini tamomlagan. 1941-yilda urush boshlanganidan so‘ng o‘z ixtiyori bilan frontga jo‘nab ketgan. U feldsher bo‘lib, Ribinskda diviziya komandiri bo‘lib tugatilgan. U 1942 yil avgustdagagi janglarning birida (21 yoshida) harbiy harakatlarda qatnashgan va yaradorlarni qutqargan, u 26 nafar yarador va o‘ldirilgan askarni qurollari bilan birga olib ketgan, buning uchun u hukumat mukofoti - Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlangan. Ammo ular uni “Jasorat uchun” medali bilan taqdirlashdi. Maryam 1944-yilgacha jangni davom ettirdi, qo‘lidan yarador bo‘ldi, shundan so‘ng u tibbiy xizmatda katta leytenant unvoni bilan bo‘shatildi.[6]

Umumiy xulosa qilib aytganda Ikkinchiji jahon urushida xotin-qizlarning front va frontortidagi faoliyati fashizm ustidan qozonilgan g’alabaga katta hissa qo‘shdi. Ularning jasorati, mehnati, fidoyiligi va zarur hollarda hayotlarini fido qilishlari bu urushning eng yorqin va eng unutulmas qahramonliklarini tashkil etdi. Xotin-qizlar o‘zining jangovar va ishchi mehnati bilan dunyo tarixida o‘z o‘rnini topdilar. Bu jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlari uchun gender tengligi va ayollarning ijtimoiy va siyosiy huquqlari uchun muhim bir qadam bo‘ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lafasov M., Jo’rayev U. Jahon tarixi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2005. – B.142.
2. Akbarov R.M. Ikkinchiji jahon urushi yillarida matbuotda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarining yoritilishi (1941 – 1945-yillar, o‘zbek tilidagi gazetalar

- misolida): Tarix fan. fal doktori (PhD) ...dissertatsiyasi – Andijon, 2025. – B.84.
3. Zebo G‘aniyeva //[https://uz.wikipedia.org/wiki/Zebo\\_G%CA%BBaniyeva](https://uz.wikipedia.org/wiki/Zebo_G%CA%BBaniyeva) [Murojaat qilingan sana: 28.03.2025]
4. Акбаров, Р. (2023). Ikkinchı jahon urushi yillarida o‘zbek milliy matbuotida sog‘liqni saqlash masalasi. История и культура центральной Азии, 1(1), 485–490. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-culture/article/view/17209>
5. Shamsutdinov R. Ikkinchı jahon urushi va front gazetalari. 2-kitob. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.26
6. Герои Узбекистана: Марьям Юсупова // <https://mcomiov.livejournal.com/28904.html> [Murojaat qilingan sana: 30.03.2025]
7. Akbarov Rahmatillo. (2023). Coverage of issues related to social life in the uzbek national press during the second world war. International Scientific and Current Research Conferences, 1(01), 47–52. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1003>
8. Akbarov Rahmatillo Murtozali O‘G‘Li, . (2023). COVERAGE OF THEATER ACTIVITIES IN UZBEK NATIONAL PRESS DURING WORLD WAR II. International Journal Of History And Political Sciences, 3(06), 21–28. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue06-05>